

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SALOMOV G‘ULOM YULDOSHEVICH

UMUMTA’LIM MAKTABLARINING X-XI SINF O‘QUVCHILARIGA
SINF SOATLARINI INVARIANT USULDA O‘TKAZISH
TEXNOLOGIYASI

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Salomov G'ulom Yuldoshevich

Umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant
usulda o'tkazish texnologiyasi.....3

Саламов Гулом Юлдашевич

Технология проведения инвариантного метода классных часов учащимся
X-XI классов общеобразовательных школ21

Salomov Gulom Yuldoshevich

Technology of invariant transfer of class hours to students of grades X-XI of
secondary schools.....41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....47

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SALOMOV G‘ULOM YULDOSHEVICH

**UMUMTA’LIM MAKTABLARINING X-XI SINF O‘QUVCHILARIGA
SINF SOATLARINI INVARIANT USULDA O‘TKAZISH
TEXNOLOGIYASI**

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped4871 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tersu.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudov Yusup Ganiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Olimov Shirinboy Sharopovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Himmataliyev Do'stnazar Omonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "28" 12 kuni soat 16:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh. Barkamol avlod ko'chasi, 43 -uy. Tel.: (+99876) 221-74-55; faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin. (235 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz sh. Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55; faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "15" 12 kuni tarqatilgan.
(2023-yil "15" 12 daqi 12/6 -raqamli restr bayonnomasi).



I.T. Chariev
I.T. Chariev,
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor.

A.B. Narbayev
A.B. Narbayev,
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, p.f.f.d.(PhD).

I. Allakov
I. Allakov,
ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, f.m.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida xalq ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va sifatli kadrlar tayyorlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish"¹ dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Umumta'lim maktablari X-XI sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tafakkurini takomillashtirishda innovatsion ta'lim metodlarini qo'llagan holda, o'qitish orqali kompetensiyalarni shakllantirish, zamon talablariga mos faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash modeli ta'lim jarayoniga tatbiq etilgani birlamchi vosita sifatida qaralib, ta'lim mazmunini mazkur munosabatlarga asoslanib shakllantirish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Dunyoda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tafakkurini takomillashtirish orqali ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish pedagogika fanini o'qitishning asosiy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Pedagogika institutlari va universitetlarida innovatsion-metodik yondashuvdan kengroq foydalanish, interfaol o'qitish metodlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish asosida yosh avlod ma'naviyatini, ma'rifatini, mafkurasini takomillashtirishning modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini yaratish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash pedagogik tizimni takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoq zarur.

Mamlakatimizda o'quvchilarni mustahkam irodali qilib tarbiyalash, mustaqil kreativ fikrlashga o'rgatish tufayli ular kelgusida o'z oldilarida vujudga kelishi kutiladigan muammolarni ijobiy ravishda hal qilish orqali xalq xo'jaligining rivojlanishiga, mamlakatimizning ilg'or texnologiyalar bilan jahon davlatlari qatoridan munosib o'rin egallashiga hissa qo'shishga erishish lozim. Shu maqsadda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama komil, o'qimishli, ziyoli, o'zining xatti-harakatlari bilan o'zgalarga o'rnak bo'la oladigan shaxsni tarbiyalash va bu borada qilinishi lozim bo'lgan barcha say-harakatlarni aniq rejalashtirib, muntazam ravishda maqsadli faoliyat olib borish zarur bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida tarbiya fani va sinf soatlari tizimini o'qitishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar, multimediali ta'lim zahiralarni joriy etish imkoniyatlari yanada kengaydi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'llarini davom ettirish, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish; ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash hamda oliy ta'lim tizimi faoliyatining sifat va samaradorligini oshirish"²

¹ Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 - may 2015 y., Incheon, Republic of Korea).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil. 6-son. 70-modda.

kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalar ijrosi X-XI sinf o'quvchilari faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini, ma'naviy-axloqiy tafakkur sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishni nazarda tutgani holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi — "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi — "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini takomillashtirishga oid tadqiqotlar:

Sharq mutafakkirlari Muso al-Xorazmiy, Umar al-Chag'miniy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Az-Zamaxshariy, Sulaymon Baqirg'oniy, Shayx Najmiddin Kubro, Paxlavon Mahmud, Bahouddin Naqshband, Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Nasriddin Rabg'uziy, Jaloliddin Rumiy, Mahmud Koshkariy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Taftazoniy, Jurjoniy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Abdulg'oziy Bahodirxon, Muhammadniyoz Nishotiy, Roqim, Munis Xorazmiy, Muhammadrizo Ogahiy, So'fi Olloyor, Jahon Otin Uvaysiy, Muhammad Sodiq Koshg'ariy, Ahmad Donish, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Berdimurod Berdaq, Muhammad Rahimxon Feruz, Komil Xorazmiy, Muhammad Rasul Mirzo, Ilyos Mulla Muhammad o'g'li So'fiy, Ahmadjon Tabibiy, Avaz O'tar, Bayoniy, Faqiriy, Nodira, Anbar otin, Behbudiy, Abdulla Avloniylarning shaxs ta'lim-tarbiyasi haqidagi qarashlarida hamda mamalakatimiz olimlaridan M.Quronov, O.Musurmonova, U.Mahkamov, E.G'oziyev, M.Mahkamova, T.Atamuratova, Sh.Tojiyeva, Z.Qurbanniyozova, B.Ziyomammedov, A.Zunnunov, I.Rahimova, H.Ravshanov, F.Norboyeva, M.Isakova, Sh.Atadjanova, B.Qorayeva va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida umumta'lim maktablarida milliy tarbiya, tarbiyaviy jarayonlarni innovatsion metodlardan foydalangan holda tashkil etish masalalariga e'tibor qaratganlar.

MDH mamlakatlari olimlaridan K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy, N.E.Shurkova, N.I.Derekleeva, M.Yu.Savchenko, L.S.Beskorovaynaya,

M.I.Rojkov, L.V.Bayborodova kabilar X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini o'tkazish texnologiyasini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini takomillashtirishga oid tadqiqotlar Pritchard, Ivor, Ryan, Kevin, Bohlin, Karen kabi xorijlik olimlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan OTM ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ loyihasi doirasida 574099-EPP-1-2016-1-TT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli PAWER - Hudulararo mobillikni yo'lga qo'yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta'minlash" (2020-2023-yy.) mavzusidagi xalqaro grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasi asosida amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlarini tahliliy o'rganib va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasi holati, mazmun-mohiyatini tahlil qilish hamda faoliyatga qo'llash mazmunini aniqlash;

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini takomillashtirishning metodik modeli hamda natijaviy komponentlari mazmunini aniqlashtirish asosida ishlab chiqish;

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini rivojlantirishning interfaol metodlarni ta'lim jarayonida qo'llash metodikasini ishlab chiqish;

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasining rivojlantirilganlik darajalarini baholash me'zonlarini ishlab chiqish va pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish jarayoni belgilanib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlaridan tajriba sinflaridan 340 nafar, nazorat sinflarida 338 nafar, jami 678 nafar o'quvchi tajriba – sinovga jalb qilindi.

Tadqiqotning predmeti umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasi mazmuni, shakl, metod, vosita va yo'llari.

Tadqiqotning usullari. Mavzuga taalluqli ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlarni o'rganish, ularni psixologik, pedagogik, didaktik jihatdan tahlil qilish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, pedagogik kuzatuvlar, modellashtirish: (empirik, suhbat, anketa, test savollari) tajriba-sinov ishlariga matematik-statistik metodlardan foydalanib ishlov berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasi o'quvchilarning o'quv va ta'lim-tarbiyaviy faoliyati mazmun-mohiyatini tahlil qilish hamda faoliyatga tayyorlashning xulosalay olish funksiyalariga mutanosib ravishda ijtimoiy fanlarni o'zlashtirishning o'quv-didaktik vositalari asosida takomillashtirilgan;

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini takomillashtirishning metodik modeli maqsadli (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar, vazifalar), jarayonli (invariant o'tkazishning tarkibiy qismlari, mazmun, shakl, vosita va baholash mezonlari) hamda natijaviy komponentlari mazmunini aniqlashtirish asosida optimallashtirilgan;

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini rivojlantirishning mazmuni o'qitishda interfaol ta'lim texnologiyalari (bumerang, klaster, bahs-munozara va boshqalar)ni qo'llash va dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish orqali takomillashtirilgan;

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'quv-metodik ta'minot o'quvchilarning texnik va texnologik imkoniyatlarini hisobga oluvchi hamda reproduktiv, produktiv, kreativ darajalarini aniqlovchi ijodkorlik xarakteridagi topshiriqlarni ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish uchun, sinf soatlariga metodik ta'minot, o'quv dasturlari, o'quv va uslubiy qo'llanmalar hamda elektron ta'lim resurslari (21.04.2021, № 003424, № 003423 - son patentlar) yaratilgan;

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini takomillashtirish darajalari, mezon va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan;

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazishni takomillashtirish uchun interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim-tarbiyaviy jarayonga joriy etilgan;

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorijiy hamda OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallar, xalqaro va respublika ilmiy konferensiya materiallari to'plamlarida maqolalar chop etilganligi, ilmiy-metodik takliflarning amaliyotga tatbiq etilganligi, sinf soatlarini invariant o'tkazish texnologiyalariga oid o'quv materiallarining nashr etilganligi va ta'lim-tarbiyaviy jarayonga joriy qilinganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, olingan natijalarning matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlanganligi, amaliyotga tatbiq qilinganligi va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini

invariant usulda o'tkazish texnologiyasiga oid psixologik-pedagogik qarashlar, nazariy yondashuvlar bilan boyitildi, shuningdek, mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, takomillashtirish yo'llari, shakllari, metodlaridan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular tarbiyaning invariant va variativ komponentlari asosida X-XI sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar, chora-tadbirlar dasturlarini tayyorlash, pedagogika institutlari va universitetlarining yo'nalishlari ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan Davlat ta'lim standartlari va Malaka talablarini ishlab chiqish, X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazishni sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasi o'quvchilarning o'quv va ta'lim-tarbiyaviy faoliyati mazmun-mohiyatini tahlil qilish hamda faoliyatga tayyorlashning xulosalay olish funksiyalariga mutanosib ravishda ijtimoiy fanlarni o'zlashtirishning o'quv-didaktik vositalari asosida takomillashtirishga oid tavsiyalardan Termiz davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi loyihasi doirasida 2019-2022-yillarda bajarilgan 574099-EPP-1-2019-1-IT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli PAWER – “Hududlararo mobillikni yo'lga qo'yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta'minlash” mavzusidagi xalqaro grant loyihasini bajarishda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2023-yil 16-maydagi 06/12-2093-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur yondashuvlar X-XI sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tafakkurni rivojlantirishning sifat va samaradorligini oshirishga erishilgan;

X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini takomillashtirishning metodik modeli maqsadli (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar, vazifalar), jarayonli (invariant o'tkazishning tarkibiy qismlari, mazmun, shakl, vosita va baholash mezonlari) hamda natijaviy komponentlari mazmunini aniqlashtirish asosida optimallashtirishga oid tavsiyalardan Termiz davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi loyihasi doirasida 2020-2023-yillarda bajarilgan 574099-EPP-1-2019-1-IT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli PAWER – “Hududlararo mobillikni yo'lga qo'yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta'minlash” mavzusidagi grant loyihasini bajarishda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2023-yil 16-maydagi 06/12-2093-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur taklif va tavsiyalardan X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant o'tkazish jarayoni mazmunini modernizatsiyalash asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlari, darsliklar, metodik qo'llanmalar ishlab chiqishda foydalanilgan;

umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'quv-metodik ta'minot

o'quvchilarning texnik va texnologik imkoniyatlarini hisobga oluvchi hamda reproduktiv, produktiv, kreativ darajalarini aniqlovchi ijodkorlik xarakteridagi topshiriqlarni ishlab chiqish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan sinf soatlarini o'tkazishda qo'llanildi. (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi ta'lim markazining 2023-yil 23-maydagi 01/11-01/10-421-son ma'lumotnomasi). Natijada, X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'qitish asosida o'quvchilarda hayotiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi samaradorligining ortishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika hamda 7 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan 2 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan (21.04.2021, № 003424, № 003423).

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 10 ta paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 129 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, va ishning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganik darajasi, maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, uning fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslanib, ishning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi umumta'lim maktablarida sinf soatlarini o'qitish jarayonini invariantlashtirishning didaktik shart-sharoitlarini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda muammo yuzasidan mamlakatimiz va xorijdagi ilg'or tajribalarni amalga tatbiq etishning mavjud holati va ijobiy tomonlari atroflicha o'rganilgan.

Bobning **“Umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasining mavjud holati”** deb nomlangan birinchi paragrafida umumta'lim maktablarining X-XI sinflarida ayni paytda o'tkazilayotgan **“Sinf soati”** mashg'ulotlarining holati, sinf rahbarlari faoliyatida ko'zga tashlanayotgan muammolar va sinf soatlari amalda qanday tashkil etilish kerakligi haqida so'z yuritilgan.

Tahlillar natijasida: umumta'lim maktablarida **“Sinf soati”** mashg'ulotlari uchun ilmiy asoslangan andaza va ko'rsatmalar yetarli emasligi; manbalarda o'quv

jarayonining invariant shakli pedagogik texnologiya tushunchasi ta'rif atroflicha yoritilgan bo'lsa, o'quv jarayonini ta'lim tamoyillari va texnologiyalari asosida tashkil etish, xususan, sinf soati o'quv mashg'ulotlarini invariant tashkil etish va o'tkazish masalalari o'z yechimini topmaganligi haqidagi xulosalarga kelindi. Uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bosqichida, xususan, umumta'lim maktablariga ta'lim texnologiyalari va tamoyillari asosida sinf soatlarini invariant o'tkazish usullarini ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammo hisoblanishiga munosabat bildirilgan.

Mamlakatimiz va rivojlangan xorijiy davlatlarda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotlari rejasini tuzish va o'tkazish yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari mazmuni bobning "Umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasiga doir materiallarni tanlash prinsiplari" nomli ikkinchi paragrafida bayon qilingan. Tahlillar asosida "Sinf soati" mashg'ulotlarini invariant o'tkazishning shart-sharoitlari asoslab berilgan.

O'quv mashg'ulotlarini invariant o'tkazishni rejalashtirish belgilangan maqsadga erishishda sinf rahbari tomonidan jarayonga tayyorgarlik ko'rish, ya'ni ta'lim shakllari, vositalari, metodlari, texnologiyalarini oldindan to'g'ri tanlash, kutilayotgan natijalar haqida to'la tasavvurga ega bo'lishdir. O'quv jarayonini rejalashtirish: butun ta'lim davri; o'quv yili; choraklar bo'yicha; oylik; haftalik va kunlik hamda bir soatlik o'quv mashg'uloti bosqichlarini o'z ichiga oladi.


Bobning "Umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasiga doir materiallarni tanlashda didaktik talablar va mezonlar" nomli uchinchi paragrafida sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasiga doir materiallarni tanlashda, asosan, materiallar bizning mentalitetimizdan kelib chiqqan holda, sharqona ta'lim-tarbiya mezonlari asosida boyitish kabi didaktik talablar va mezonlar qo'yilishi to'g'risida fikr yuritildi.

Yosh avlodning ongi, dunyoqarashi, ma'naviyati, madaniyatini shakllantiruvchi ta'lim-tarbiya azal-azaldan o'zbek xalqi farovonligini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. O'quvchilarini Sharq mutafakkirlari hayoti, faoliyati, ijodi bilan tanishtirish, ularning shaxs ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlari, ta'limotlari yondashuvlaridan sinf soatlarida foydalanish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Tadqiqotchi **"Umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazishda innovatsion metod va shakllar"** deb nomlangan ikkinchi bobida sinf soatlarini o'tkazishda qo'llaniladigan metodlar haqida atroflicha fikr yuritgan.

Tarbiyaning varativ komponentlari va ularni o'quvchi ongu shuuriga singdirish masalalari bobning "Umumta'lim maktablarining X sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazishda klaster metodidan foydalanish" deb nomlangan birinchi paragrafida o'z ifodasini topgan.

Tarbiyaning variativ komponentlarini o'quvchilar ongida shakllantirishda, eng avvalo, ota-onalardan va sinf rahbarlaridan yuksak bilim va dunyoqarash talab qilinadi.




1-rasm. Tarbiya komponentlari

Darhaqiqat, har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy-nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash uchun bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish, albatta, oson ish emas. O'qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma'lumotlarni egallashga layoqatli, bilish faolligi va aqliy mehnat madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetkazish – muhim vazifa. Tarbiyaning 60 ga yaqin komponenti mavjud bo'lib, ularni o'quvchilarda mujassam qilish sinf soatlarining bosh maqsadi. Yuqoridagi 1-rasmda tarbiyaning variativ komponentlari aks ettirilgan. Kishining jamiyatda tutgan mavqeyiga bog'liq bo'lmagan bir kasb borki, u onalik va otalik kasbi. Ota-onalar o'z bolalarining tarbiyasi uchun jamiyat oldida javobgardirlar. Oila mustahkamligi, ma'naviy va jismoniy barkamol farzand jamiyat mustahkamligi va ma'naviy yetuklikning garovi.

Umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazishni texnologiyasini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish jarayonini bir butun tizim sifatida tahlil qilish maqsadida tadqiqot ishimizning metodik modelini ishlab chiqdik (quyidagi 2-rasm). Biz tomonimizdan taklif etilayotgan model uchta (maqsadli, jarayonli, natijaviy) bloklarga ajratilib, maqsadli blok (maqsad, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va vazifalar), jarayonli blok (kompetentsiya turlari (tayanch, kasbiy va maxsus), pedagogik jarayon (mazmun, shakl, metod, vosita va qo'llanish sohasi), mashg'ulotlar (auditoriya va auditoriyadan tashqari)), natijaviy blok (baholash mezonlari (reproduktiv, produktiv, kreativli) hamda natija)ni o'z ichiga oladi.

Model to'rtta vazifani qamrab olgan bo'lib, ular umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini takomillashtirish metodikasining holati, mazmun-mohiyatini tahlil qilish hamda o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunini aniqlashni, ta'limning zamonaviy usullarini qo'llash mexanizmlarini rivojlantirishni o'ziga ustuvor vazifalar sifatida qabul qiladi.

Har qanday maqsadni amalga oshirish uchun jarayon kerak. Tadqiqot ishimizni pedagogik jarayonga ustuvorlik berish asosida olib bordik. Metodik modelda pedagogik jarayon elementlari sifatida quyidagi darajalar aniqlandi: mazmun (Me'yoriy hujjatlar (O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, oliy ta'lim sohalari tasniflagichi, ta'lim sohasining DTS, ta'lim yo'nalishining malaka talabi va o'quv reja hamda umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasini takomillashtirish metodikasi tayyorlash jarayonini tashkil etishga oid boshqa shu kabi hujjatlar), ilmiy adabiyotlar (didaktik manbalar, ko'rgazmali qurollar, maketlar)); shakl (jamoaviy (o'quvchilarni umumlashtiruvchi shakllardan foydalanish), guruhli (o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib o'qitish), individual (yakka tartibda mashg'ulotlar tashkil etish)); metod (an'anaviy metodlar (og'zaki, ko'rgazmali, amaliy), noan'anaviy metodlar (interfaol metodlar), innovatsion texnologiyalar (innovatsion yondashuvga asoslangan "Smart master", "Smart Portfolio", "Upgrade" texnologiyalari)).




2-rasm. Invariant usulda o'tkazish texnologiyasi asosida X-XI sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tafakkurini takomillashtirishning metodik modeli

Sinf rahbarining ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishi metodik asosga ega bo'lsagina samara beradi. Buning mohiyati sinf rahbarining o'quvchilarni axloqiy rivojlantirishga qay darajada ta'sir qila olishidadir, ya'ni o'quvchining yoshi, guruhi, shaxsiy xususiyati hisobga olinishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy mavzular yuzasidan munozaralar o'tkazish o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy e'tiqod, qarash va nuqtai nazarini shakllantirishning muhim vazifasi hisoblanadi.

Munozara vaqtida sinf rahbari betaraf turishi foydali. Munozara oxirida sinf rahbari yakun chiqaradi. Munozara uchun yoshlarni to'liqlantirayotgan masalalar mavzu bo'ladi, masalan: "Hayotda o'z o'rnini topishning ma'nosini qanday



3-rasm. Bahs - munozara o'tkazish modeli

anglaysiz?", "Yashashning ma'nosi va hayotdan maqsad", "Inson qachon baxtli bo'la oladi?", "Zamonaviy bo'lishning ma'nosi nimada?"

Sinf rahbari faoliyatining mazmuniga kiradigan axloq tarbiyasi faqat yuqoridagilar bilangina hal bo'la qolmaydi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish murakkab jarayon bo'lib, asosiy e'tibor o'quvchilarda axloqiy ong, axloqiy his, tushuncha, mulohaza kabilarga muvofiq axloqiy malaka va odatlarni shakllantirishga qaratilishi kerak.

Munozara texnologiyasi bosqichlari quyidagilardan iborat.

1-bosqich. Tayyorlov. O‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e‘lon qiladi. Dars maqsadini, unda ko‘riladigan muammoni aniq tushuntiradi. Mavzu tahlili davomida qo‘llaniladigan ”Munozara” texnologiyasi, uning ta‘limiy imkoniyatlari va bosqichlari, qoidalari haqida batafsil ma‘lumot beradi, shuningdek, har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlaydi.

2-bosqich. Kirish. Sinfda yozuv taxtasining qarama-qarshi burchaklariga bitta muammo asosida masalaning turli jihatlarini talqin qiluvchi fikrlar qayd etilgan qog‘ozlar osib qo‘yiladi. Birinchi qog‘ozda “Ha, qabul qilaman”, ikkinchi qog‘ozda esa “Yo‘q qarshiman” degan mazmundagi yozuvlar bo‘lishi kerak. Yuqoridagi fikrlarga nisbatan munosabatni o‘quvchilar o‘z nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda belgilab oladilar.

3-bosqich. Tahlil. Guruhlarga birikkan o‘quvchilar o‘zlari to‘g‘ri deb hisoblagan fikrni asosli ekanligini isbotlash uchun munozaraga kirishadilar. Ikkala guruh vakillari qarama-qarshi mavzular yuzasidan eng ishonchli, asosli dalillarni keltiradilar.

4-bosqich. Yakun. O‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini baholaydi, mashg‘ulotga yakun yasaydi.

Munozaralar – eshitish aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvi.

Munozaralarni o‘tkazishda yuqorida 3-rasmda keltirilgan “Bahs - munozara o‘tkazish modeli”ga asoslaning.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va uni o‘tkazish**” deb nomlangan. Uning “Pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va o‘tkazish maqsad va vazifalari” deb nomlangan birinchi paragrafida umumta‘lim maktablarida “Sinf soatlari”ni invariant usulda o‘tkazish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish mazmuni yoritilgan.

Tajriba sinov ishlari mamlakatimizning uchta mintaqasidagi umumta‘lim maktablarida xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi maktablarda o‘tkazildi (1-jadval).

1-jadval

Umumta‘lim maktablaridan tajriba-sinov ishida ishtirok etgan sinf rahbari va o‘quvchilari soni

T/r	Umumta‘lim maktablari		Ishtirok etganlar soni	
			Sinf rahbarlar	O‘quvchilar
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi		7	210
	Nukus shahridagi 5-, 6-;	To‘rtko‘l tumanidagi 1-, 21-;		
2.	Sirdaryo viloyati		7	210
	Boyovut tumanidagi 15-, 20-;	Mirzaobod tumanidagi 2-, 17-		
3.	Surxondaryo viloyati		8	258

	Qumqo'rg'on tumanidagi 2-, 24-;	Termiz tumanidagi 3-, 14-;	Termiz shahridagi 8-, 17-;		
Jami				22	678

Tanlangan yo'ldan og'ishmaslik maqsadida pedagogikada baholashning axborot ta'minoti va texnologiyasiga xos bo'lgan metodik jihatlariga to'xtalinib, statistikaning tanlanma usuli keng qo'llanildi. Tanlanmada reprezentativlikning majorantlik (ustunlik) prinsipidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarini qayta tahlil etishga oid aksariyat matematik-statistik metodlarda ilgari surilayotgan g'oyaga ko'ra, qayta tahlil aynan tajriba va nazorat sinflaridagi tajriba-sinovda qatnashayotgan o'quvchilarning tajriba yakunida qo'lga kiritgan ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqqa ko'ra tadqiqot samaradorligiga baho berildi. Ana shu maqsadda χ^2 – (xi kvadrat) metodi g'oyasiga muvofiq tajriba va nazorat sinflari o'quvchilarining birinchi bosqich yakuniy ko'rsatkichlari bilan ikkinchi, uchinchi va yakuniy bosqich ko'rsatkichlari o'zaro qiyoslandi.

2-jadval

“Sinf soati”ni o'tkazish natijalari

Umumta'lim maktablari	Sinflar	O'quvchilar soni	Baholar			
			“2”	“3”	“4”	“5”
Qoraqalpog'iston Respublikasi	Tajriba	112	11	17	66	18
	Nazorat	114	22	25	55	12
Sirdaryo viloyati	Tajriba	110	10	16	67	17
	Nazorat	116	22	25	58	11
Surxondaryo viloyati	Tajriba	118	9	16	76	17
	Nazorat	108	21	23	56	8
Jami	Tajriba	340	30	49	209	52
	Nazorat	338	65	73	169	31

Tajriba-sinovda bilim darajalarining yaqinligi mezoni asosida umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilar sinflaridan tanlanma usul bilan tajriba-sinov uchun tajriba sinflarida 340 nafar, nazorat sinflarida 338 nafar o'quvchilarning natijalari tahlil qilindi. Tajriba-sinov bo'yicha yakuniy bosqichda olingan natijalar 2-jadvalda berilgan.

Tajriba-sinov natijalarining aniqligini ta'minlash uchun matematik-statistik usullardan biri bo'lgan Pirsonning xi-kvadrat mezonidan foydalanildi. Tajriba-sinovga qadar va keyingi tajriba va nazorat sinflari uchun empirik qiymatlari hisoblanildi. Buning uchun (1) formuladan foydalanilgan.

$$\chi_{emp}^2 = TN \sum_{i=1}^M \frac{(\frac{m_i}{T} - \frac{n_i}{N})^2}{\frac{m_i}{T} + \frac{n_i}{N}} \quad (1)$$


Statistik ma'lumotlar 3-jadvalda, diagrammasi 4-rasmda aks ettirilgan.

3-jadval

Tanlangan umumta'lim maktablarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlilining umumiy natijasi

Baho qiymati	Tajriba sinfi T=340				Nazorat sinfi N=338			
	“2”	“3”	“4”	“5”	“2”	“3”	“4”	“5”
Mos baholar soni	30	49	209	52	65	73	169	31
Baholarning o'rta arifmetik qiymati								

Samaradorlik koeffitsiyenti	$\eta = \frac{\bar{x}}{\bar{y}} = 1,10$	
Ishonchlik ehtimoli oralig'i	$3,83 \leq \bar{x} \leq 3,9$	$3,48 \leq \bar{y} \leq 3,5$



4-rasm. Uchta mintaqada o'tkazilgan test topshiriqlarini bajarish va masalalarni yechish natijalari

Tahlillar ko'rsatdiki, tajriba va nazorat sinflari o'quvchilarining sinf soatlaridan o'zlashtirish darajalari tajriba-sinov oxirida sezilarli farq qilgan, ya'ni o'zlashtirish samaradorligi 10% ga oshgan.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida olingan natija samaradorligi yangi ekanligi isbot qilindi. Tadqiqotning umumiy g'oyalari dissertatsiya ko'rinishida bayon qilindi. Dissertatsiya materiali turli joylarda, kafedra xodimlari, mutaxassislar, amaliyotchi professor-o'qituvchilar, metodistlar, umumta'lim maktablari rahbarlari ishtirokida muhokamadan o'tkazildi, tegishli tuzatishlar kirtildi.

XULOSALAR

1. Umumta'lim maktablarida sinf soatlarini tashkil qilish mazmuni, metodi, usuli, tashkiliy shakl va boshqarish jarayonining yaxlit hamda bir butunligi ta'minlandi va umumta'lim maktablarida sinf soatlarini tashkil qilishning innovatsion pedagogik asoslarida dinamiklik - istagan tizim o'z o'tmishiga, hozirgi darajasiga va kelajak istiqbollariga ega bo'lindi.

2. Umumta'lim maktablarida sinf soatlarini tashkil qilishning innovatsion yondashuv asosida, tizimli ravishda muammoli ta'lim texnologiyalarni qo'llash orqali, ularning sifati va samaradorligi oshirildi. X-XI sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tafakkurini takomillashtirish asosini psixologik-pedagogik, didaktik-metodik bilimlar, psixologik-pedagogik tayyorgarlik, sinf soatlariga oid materiallarni mukammal bilish, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan (muammoli ta'lim va didaktik o'yinlar) faoliyatda o'rinli foydalana olish kabi sifat ko'rsatkichlari tashkil etadi va o'quvchilarning hayotiy kompetentligida namoyon

bo'ldi.

3. X-XI sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tafakkurini takomillashtirish yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etilib, mazkur jarayonda o'quvchilar moyilligi, layoqatini ta'lim muassasalari ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish talab etildi hamda ma'naviy-axloqiy tafakkurni takomillashtirishda sinf soatlari mazmunini didaktik sintezlashni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri ekanligi aniqlandi.

4. Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida X-XI sinf o'quvchisining fundamental bilim egallashi, uning intellektual mehnat, ijodiy va mustaqil fikr yuritishi (tahlil, sintez qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish), qo'yilgan maqsad hal etiladigan masalaga nazariy va amaliy, reproduktiv, qisman izlanuvchi va kreativ ko'rinishlarda namoyon bo'lishi, ma'naviy-axloqiy tafakkurni takomillashtirish bo'yicha o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat va qat'iyatlik hissini rivojlantirishda o'z aksini topishi aniqlandi.

5. X-XI sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tafakkurni takomillashtirishga yo'naltirilgan texnologik jarayon muammoli-faoliyatli kompetensiyaviy yondashuvlar asosida muvaffaqiyatli amalga oshishi, sinf soati materiallarini o'rgatish jarayonida o'zini-o'zi boshqarish, tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy tafakkurni takomillashtirish asosida o'quvchilarni mustaqil kreativ faoliyatga jalb etish, psixologik-pedagogik muhit yaratish, o'quvchining moyilligi, layoqati, qiziqish va ehtiyojini inobatga olish, ular tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash, hamkorlikda ishlash, tanlash, kognitiv, individual va integrativ prinsiplarning ustuvor ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

6. Pedagogik tajriba-sinov ishlarida innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida sinf soatlarini o'qitish X-XI sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tafakkurni takomillashtirishda, mustaqil fikrlash, shaxsiy mulohazalarni erkin bayon qilish, qaror qabul qila olish, shaxsiy-kasbiy kompetentlilik kabi sifatlarni tarbiyalashda keng imkoniyatlar yaratishi tasdiqlandi.

7. X-XI sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tafakkurini takomillashtirishda sinf soatini innovatsion ta'lim texnologiyalari (muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys stadi, didaktik o'yinlar hamda misol va masalalar yechish, elektron ta'lim resurslari) vositasida loyihalash, rejalashtirish (o'quvchilarning shaxsiy tashabbus va intilishlarini hisobga olgan holda) X-XI sinf o'quvchisini tarbiyalash imkonini beradi; pedagogik tajriba-sinov jarayonida o'quvchilarning hayotiy faoliyatga tayyorgarligi va ularning kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etish va boshqarish yuqori samara berishi aniqlandi.

TAVSIYALAR

1. Tadqiqot ishidan umumta'lim maktablarining I-XI sinflari sinf rahbarlari, o'qituvchilari sinf soatlari va tarbiya fani darslarida foydalanish.

2. Tadqiqot ishidan pedagogika institutlari va universitetlarining boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish, boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida, tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan o'quv-metodik majmua va o'quv-uslubiy qo'llanmalar

tayyorlashda foydalanish.

3. Tadqiqot ishidan umumta'lim maktablarining I-XI sinf rahbarlari, o'qituvchilari sinf soatlarida, yangi avlod darsliklarini yaratishda, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari tinglovchilari tomonidan bitiruv malakaviy ish, kurs va diplom ishlarining tayyorlanishida foydalanish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

САЛОМОВ ГУЛОМ ЮЛДАШЕВИЧ

**ТЕХНОЛОГИЯ ПРОВЕДЕНИЯ ИНВАРИАНТНОГО МЕТОДА
КЛАССНЫХ ЧАСОВ УЧАЩИМСЯ X-XI КЛАССОВ
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ**

13.00.01- Теория педагогики. История педагогических учений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

Термез-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за В2023.2.PhD/Ped.4871.

Диссертация выполнена в Термезском государственном педагогическом институте. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме) на веб-странице сайте Научного совета)) (www.tersu.uz) и на информационно-образовательном портале "Ziyonet" по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Махмудов Юсуп Ганиевич
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты: Олимов Ширинбой Шаропович
доктор педагогических наук, профессор

Химматалиев Дустназар Омонович
доктор педагогических наук, профессор


Ведущая организация: Каршинский государственный университет


Защита диссертации состоится "28" 12 2023 года в 09:00 часов на заседании научного совета по присуждению учёных степеней PhD.03/30.12.2019.Пед.78.03 при Термезском государственном университете. (Адрес: 190111, г.Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (376) 221-74-55, факс: (376) 221-71-17, e-mail: termizdu@mail.uz)


С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета. (зарегистрирован под номером № 235). (Адрес: 190111, г.Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (376) 221-74-55, факс: (376) 221-71-17, e-mail: termizdu@mail.uz)

Автореферат диссертации разослан "15" 12 2023 г.
(реестр протокола рассылка № 12/6 от "15" 12, _____ 2023 г.).




И.Т.Чариев,
председатель Научного Совета по
присуждению учёных степеней, д.п.н., профессор.


А.Б.Нарбаев,
ученый секретарь Научно Совета по
присуждению учёных степеней, д.ф.п.н(PhD).


И.Аллаков,
председатель Научного семинара при Научном
Совете по присуждению учёных степеней,
д.ф.м.н., профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировых масштабах особую значимость приобретают вопросы качества обучения в учреждениях народного образования и подготовки качественных кадров. В международной концепции образования до 2030 года, принятой ЮНЕСКО, в качестве актуальной определена задача создания условий для получения качественного образования через всю жизнь³. Наблюдаются тенденции формирования компетенций посредством обучения с применением инновационных образовательных методов в совершенствовании духовно-нравственного мышления учащихся X-XI классов общеобразовательной школы, в качестве первичного средства рассматривается внедрение в процесс обучения модели подготовки конкурентоспособных кадров с активной гражданской позицией в соответствии с современными требованиями, и формирования содержания образования, основываясь на данных отношениях.

В мире в качестве одной из основных проблем педагогической науки рассматривается развитие научного мировоззрения посредством совершенствования духовно-нравственного мышления учащихся, разработка механизма оптимизации учебно-воспитательного процесса. Необходимо расширять возможности широкого использования инновационных методических подходов в педагогических институтах и университетах, создать модернизированное дидактическое обеспечение совершенствования нравственности, просвещенности, идеологии молодого поколения на основе внедрения в образовательный процесс интерактивных методов обучения, совершенствовать педагогическую систему подготовки конкурентоспособных кадров.

В нашей стране необходимо достижение вносимого достойного вклада в развитие народного хозяйства, занятия нашей страной достойного места среди развитых стран мира благодаря передовым технологиям, путем положительного решения проблем, которые возможно возникнут перед ними за счет воспитания твердой воли учащихся, обучения их креативному мышлению. С этой целью необходимо воспитание подрастающего поколения всесторонне развитыми, образованными, эрудированными, способными своими действиями стать примером для других личностями и, четко спланировав все усилия в данном направлении, осуществлять систематическую целенаправленную деятельность. Расширяются возможности внедрения инновационных методов, мультимедийных образовательных ресурсов, направленных на системное преподавание предмета “Воспитание” и проведение классных часов в общеобразовательных школах. В Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан определены приоритетные задачи: продолжение курса дальнейшего совершенствования системы непрерывного образования;

³ Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 - may 2015 y., Incheon, Republic of Korea).

повышение уровня квалификации педагогов и специалистов; подготовка высококвалифицированных кадров в соответствии с современными потребностями рынка труда⁴. Реализация данных задач предполагает совершенствования на основе компетентностного подхода инновационных образовательных технологий, направленных на развитие уровня методической подготовки, духовно-нравственных качеств, мышления учащихся X-XI классов.

Настоящее диссертационное исследование служит в определенной степени реализации задач, намеченных в Указ Президента Республики Узбекистан №УП-4947 “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан” от 7 февраля 2017 года, в Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-2909 “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования” от 20 апреля 2017 года, в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №1059 “О мерах по реализации и утверждения Концепции непрерывного духовного воспитания” от 31 декабря 2019 года, также в других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы деятельности.

Соответствие исследованию приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики I. “Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства”.

Степень изученности проблемы. Мыслители Востока Муса аль-Хорезми, Умар аль-Чагмини, Имам аль-Бухари, Имам ат-Термизи, Абу Наср Фараби, Абу Райхан Беруни, Ахмад аль-Фергани, Абу Али ибн Сина, Юсуф хас Хаджиб, Аз-Замахшари, Сулейман Бакиргани, Шейх Наджмиддин Кубро, Пахлавон Махмуд, Бахауддин Накшбанд, Ходжа Абдухалик Гиждувани, Насриддин Рабгузи, Джалалуддин Руми, Махмуд Кошгари, Ахмад Яссави, Амир Темур, Мирзо Улугбек, Тафтазани, Джурджани, Алишер Навои, Абдуррахман Джами, Джалалуддин Давани, Хусейн Вайз Кошифи, Захириддин Мухаммад Бабур, Хайдар Хоразми, Хафиз Хоразми, Абдулгази Бахадирхан, Мухаммаднияз Нишоти, Рахим, Мунис Хоразми, Мухаммадризо Огахи, Суфи Оллояр, Джахан Отин Увайси, Мухаммад Садик Кошгари, Ахмед Даниш, Закирджон Халмухаммед угли Фуркат, Бердимурад Бердак, Мухаммад Рахимхан Феруз, Камиль Хоразми, Мухаммад Расул Мирза, Ильяс Мулла Мухаммад угли Софи, Ахмаджон Табиби, Аваз Утар, Баяни, Факири, Надира, Анбаратин, Бехбуди, Абдулла Авлони и др. высказывали ценные мысли об обучении и воспитании личности.

⁴ См.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil. 6-son. 70-modda.

Ученые нашей страны такие, как М.Куронов, О.Мусурмонова, У.Махкамов, Э.Гозиев, М.Махкамова, Т.Атамуратова, Ш.Тожиева, З.Курбанниёзова, Б.Зиёмухаммедов, А.Зуннунов, И.Рахимова, Х.Равшанов, Ф.Норбоева, М.Исакова, Ш.Атаджанова, Б.Кораева в своих научно-исследовательских работах в своих научно-исследовательских работах обращали внимание на вопросы национального воспитания, организацию воспитательного процесса с использованием инновационных методов, совершенствование технологии проведения классных часов с учащимися X-XI классов на основе инвариантного метода.

Ученые из стран СНГ такие, как К.Д.Ушинский, В.А.Сухомлинский, Н.Е.Шуркова, Н.И.Дереклеева, М.Ю.Савченко, Л.С.Бескоровайна, М.И.Рожков, Л.В.Байбородова проводили научные исследования в области совершенствования технологии проведения классных часов с учащимися X-XI классов.

Взглядна совершенствовании технологии проведения классного часа с учащимися X-XI классов в инвариантном методе находят свое отражение в работах зарубежных ученых, таких как Pritchard, Ivor, Ryan, Kevin, Bohlin, Karen.

Соответствие исследования плану научно-исследовательских работ научно-исследовательского учреждения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках международного грантового проекта 574099-EPP-1-2016-1-TT-EPPKA2-SBHE-SP “Налаживание межрегиональной мобильности PAWER – и обеспечение актуальности, качества и равенства в данном направлении” в рамках проекта европейского Союза ERASMUS+ плана научно-исследовательских работ Термезского государственного педагогического института (2020-2023 гг.).

